

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

**Qadimgi Rimda gladiatorlar janggi tahriri**

**Ergasheva Shohista Faxriddin qizi**

**Toshkent Xalqaro Kimyo universiteti Namangan filiali**

**Tarix yoʻnalishi 1-bosqich talabasi**

**[shohistaergasheva26@gmail.com](mailto:shohistaergasheva26@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Mazkur ishda Qadimgi Rimda yashagan qullardan tuzilgan gladiator jangchilari, ularni paydo boʻlishi, rivojlanishi, oʻzining yuqori nuqtasiga chiqqan davri, ayol gladiatorlar, gladiator boʻlgan imperatorlar, gladiatorlar janglarini tashkil etilish joyi, janglarda nechta gladiator qatnashishi, janglarni narxlari haqida qisqacha toʻxtalib oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** Капуя, Николас, Колizeй, Лентул Батиат, Amazon, Ахилла, Brun Pera, Ludi, Тибериу.

**Аннотация:** В данной работе кратко рассмотрены бойцы-гладиаторы, составленные из рабов, живших в Древнем Риме, их появление, развитие, период, когда они достигли своего пика, женщины-гладиаторы, императоры-гладиаторы, место организации гладиаторских боев, сколько гладиаторов участвовало в боях, цены на бои.

**Annotation:** This work briefly mentions gladiatorial Warriors, compiled from slaves who lived in Ancient Rome, their appearance, Development, their period of high point, female gladiators, emperors who became Gladiators, the place of Organization of gladiatorial battles, how many gladiators participated in battles, prices for battles.

**Ключевые слова:** Капуя, Николас, Колизей, Лентул Батиат, Амазонка, Ахилла, Брун пера, Людовик, Тиберий.

**Keywords:** Capuya, Nicolas, Colosseum, Lentul Batiat, Amazon, Achilla, Brun Pera, Ludi, Tiberius.

Gladiator (lot. gladius — „qilich“) Qadimgi Rimda tomoshabinlarni zavqlantirish uchun boshqa bir gladiator, yirtqich hayvonlar yoki jinoyatchilar bilan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

o'lguncha urushadigan jangchidir. Ba'zi gladiatorlar o'z hayotlarini tahlikaga qo'yarak jangga qo'shildilar. Biroq gladiatorlarning aksariyatini qullar, asirlar va jinoyatchilar tashkil etardi.

Qadimgi Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri gladiatorlar jangi bo'lgan. Aksariyat gladiatorlar qullar yoki jinoyatchilar bo'lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta'lim berishar, so'ngra tomoshabinlar ko'nglini xushlash uchun birlari bilan olishishga majbur qilishar edi. Har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlar xohish-istagiga bog'liq edi. Jang so'ngida tomoshabinlar yengilgan gladiatorning tirik qolish-qolmasligini hal qilishardi. Agar tomoshabinlarning ko'pchiligi o'ng qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa – yengilgan gladiator tirik qolar, aksincha, pastga qaratishsa – u tomoshabinlar ko'z o'ngida o'ldirilardi. Janglar ulkan tosh stadionlar – amfi teatrlarda bo'lib o'tardi. 50 ming tomoshabin sig'adigan Kolizey eng katta amfi teatr hisoblangan[1]. Ba'zida gladiatorlar katta-katta guruhlariga bo'linib jang qilishgan, shunda sahna jang maydoniga o'xshab qolar edi: o'ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hammayoqda ag'anab yotardi. Yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o'rtasida o'tkazilgan. Biri faqat qilich va qalqon bilan, boshqasi esa to'r va changak (uch ayrili nayza) bilan qurollangan. To'r va changak bilan qurollangan gladiator o'zini hech narsa bilan himoya qila olmasa ham, u ra qibini to'r bilan o'rab tashlashi va changak bilan o'ldirishi mumkin edi. Gladiatorlarning yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg'azab ho'kizlar bilan oli shuvlari ham o'tkazilgan. Gladiator yaxshi urushishdan xorij, Rim harb etiketini namoyish etishi kerak. Bu bilan u olqish qozonadi. Baholash tomoshabinlarga bog'liq. Bu yuqori ham bo'la oladi, past ham.

Gladiator janglarining asl manbai bahslidir. Eramizdan avvalgi III asrda Pun urushlari davrida, keyinroq Rim Imperiyasida siyosiy va ijtimoiy hayotning bir naviga aylangan. O'yinning xalq tomonidan sevilishi o'yinlarga yanada ko'p pul xarjlanishiga olib keldi.

O'yin eng yuksak nuqtasiga eramizdan avvalgi I va eramizning II asrlari orasida yetdi. Rim Imperiyasining bo'hroni davrida ham o'yin o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Xristian imperatorlari gladiator janglarini eramizning V asrida man etishdi. Bundan so'ng gladiator o'yinlari rasmiy o'laroq tashkil etilmaydi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

Eramizdan avvalgi I asrda tarixchi Damashqlik Nikolas o'yinning ildizi etrusklardan kelganiga ishonardi. Bir avlod so'ngra Rim tarixchisi Livi ilk gladiator marosimining Kampaniyanlar tarafidan e.a. 310-yilda Samnitlar ustidan g'alabani nishonlash uchun o'tkazilganini yozgan. Eramizning VII asrida Seviliyalik Isidor lanista (gladiatorlar rahbari) so'zining etrusk tilida „jallod“ ma'nosini beradigan so'zdan kelishiga guvohlik berdi. Rim tarixchilari gladiator o'yinlarining xorijdan (katta ehtimol bilan etrusklardan) kelganini qayd etishgan.

Ammo butun dalillar kampaniyalik manbani tasdiqlaydi. Eng birinchi gladiator maktabi (ludi) Kapuyada fuqaro Lentul Batiatning uyida joylashgan[2]. Kampaniyada yerlashgan qabr freskalarida dubulg'a taqqan, nayzali va qalqonli jangchilar tasvir etilgan. Bu freskalar bilan solishtirganda etrusk qabr freskalari past saviyali va keyingi davrlarga oid.

Livi ilk Rim gladiator jangining Karfagenga qarshi bo'lgan I Pun urushida, e.a. 264-yilda o'tkazilganini qayd etgan. Qoramol bozorida Brut Peraning sharafiga uchta gladiator jangi o'tkazilgan.

Livining hisoblari erta Rim gladiator janglarining motam va qurbonlik funksiyalarini bajarishini aytadi va so'ngra gladiator tomoshasidagi teatr madaniyatini bunday qayd etadi: muhtasham ko'rinishli, yuksak saviyada qurollangan va zirhlangan xoin varvarlar Rim temiri va azamati bilan idora etilar edilar. Oddiy rimliklar saxovatli bir shaklda azamatli harbiy g'animatlarni ilohlarga bag'ishlar edilar. Ularning ittifoqchilari bo'lgan kampaniyaliklar esa kechki ovqatda istirohat etish uchun gladiatorlarni tomoshaga qo'yar edilar. Ba'zi guruh va toifalar ham o'yunchilar qatoriga qo'shildilar. Aksar gladiatorlar Rim dushmanlari kabi qurollanib, zirhlanardilar. Gladiator uchun eng muvaffaqiyatli tanlov oliy shaklda urushish va yoki o'lish edi.

E.a. 216-yilda Mark Emili Lepidin sharafiga yigirma ikki juft gladiator bilan Rim Forumi nomli yerda uch kunlik jang tashkil etildi. O'n yil so'ng afrikalik Sispion otasi va amakisi uchun jang uyushtirdi. Navbatdagi qaydga olingan o'yin e.a. 183-yili Publi Lisini Krasin aza marosimida tashkil etilgan. Uch kun davom etgan o'yinda 120 gladiator ishtirok etgan, xalqqa tekin go'sht ulashilgan. E.a. 105-yilda konsullar varvar janglarining davlat tarafidan dastaklanishiga yo'l ochishdi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

Bundan keyin bu keng yoyildi. Ludi (davlat o‘yinlari) yuqori elita tarafidan moliyalashtirilar va Yupiter kabi ilohlarga bag‘ishlanar edi.

Oxirgi Respublikaning so‘nggi yillariga qadar gladiator o‘yinlari o‘ziga ham dastak topa bildi. Gladiatorlar mashqchilar va sohiblari uchun bir biznes sohasi edi. Ovoz yig‘ish uchun siyosatchilar bu nav o‘yinlardan ham foydalanishar edi.

Gladiator sohibligi va gladiator maktablari Rim siyosatining tamal toshiga aylana boshlagandi. E.a. 65-yili Yuliy Qaysar yigirma yil avval o‘lgan otasining sharafiga gladiator o‘yinini tashkil etdi. Katta miqdorda qarzi bo‘lmasiga qaramay u kumush zirhli 320 juft gladiatorlardan foydalandi. Qaysar yanada ko‘p gladiator yig‘ishni istasa-da, senat Spartak isyonini esda tutib, 320 dan ortig‘iga ijozat bermadi. Rimda 320 juftdan oshiq gladiator saqlash taqiqlangan edi[3]. Qaysar nafaqat miqyos va xarjda, balki motam marosimlari uchun belgilangan odatlarda ham haddan oshgandi.

Yirtqich hayvonlar bilan o‘tkaziladigan gladiator tomoshalari nafaqat Respublikada, balki uning xorijlarida ham keng yoyila boshlagandi. Qaysarning qatlidan va Rim Fuqarolar Urushidan so‘ng ijtimoiy va yoki diniy shartlarini shakllantirish uchun o‘yinlar ustidan imperiya nazorati qo‘yildi. Rim elitesini bo‘hrondan qutqarish uchun o‘yin xarjlarini cheklaydigan qonun qabul etildi. O‘yinlarda qiymati 25,000 dinoridan (\$500,000) oshmagan ko‘pi bilan 120 gladiatorlardan foydalanish mumkin edi. Bundan qimmat o‘yinlarni faqat Imperiya o‘tkaza olardi, bunda ham gladiator narxi 180,000 dinoridan (\$3,6 million) ortmasligi lozim edi. Eramizning 108-yilida Trajan Dakiya ustidan g‘alabani nishonlash uchun 10 ming gladiator va 11 ming yirtqich hayvon bilan 123 kunlik gladiator o‘yinlarini tashkil etdi. Bundan keyin o‘yinlar mablag‘i yana nazoratdan chiqdi. Eramizning 177-yilida Marcus Aurelius o‘yinlarga aloqador yangi qonun qabul etdi, biroq uning o‘g‘li Kommodus bu qonunni bekor qildi.

Imperiyada gladiator tijorati keng yoyilgan edi. Rim harbiy muvaffaqiyatlari davlat ma‘danlarida islatish, amfiteatrlarda tomoshaga qo‘yilish yoki shunchaki sotish uchun keltirilgan asir askarlar sonini kundan-kunga orttirdi. Masalan, yahudiy ko‘tarilishidan so‘ng, gladiator maktablarida yahudiyilar soni sezilarli ko‘paydi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

Keyinroq esa ularga ta'lim berilmay, to'g'ri kurash arenalariga yuborildi. Asir tushgan askarlarga gladiator janglari xuddi bir hadya edi. Gladiator maktablariga ko'ngilli o'laroq qo'shilgan yoki qilgan jinoyati jazosini olish uchun keltirilganlar ham bor edi. Rimliklar uchun „gladiator“ so'zi muallimiga sodiq ta'lim ko'rgan jangchi ma'nosini bildirar edi.

Kosiblar va uysizlar uchun gladiator maktablari jang qilish muqobili sifatida doimiy yemak va boshpana taklif etardi. Gladiatorlar ularga berilgan hadyalarni o'zlari uchun saqlab qolishlari mumkin edi. Tiberiy ba'zi gladiatorlarga yuqori mablag' maosh berar edi. Mark Antoniy gladiatorlarni o'zining xususiy tansoqchilari etib tayinlagandi.

Eramizning 60-yilidan e'tiboran ayol gladiatorlar paydo bo'la boshlashdi. 66-yilda esa Neronning Efiopiyalik jangchi ayol gladiatorlari bor edi. Nufuzli rimliklar o'z istirohatlarini yanada qiziqarliroq qilish uchun ayol jangchilardan foydalanishar edi. 89-yilda Domisian davrida ayol gladiatorlar bilan mitti gladiatorlar orasida jang kechirilgan. Eramizning ikkinchi yilida Amazon va Axilla ismli ikki ayol gladiator kurashida g'olib aniqlanmagan. Ayol gladiatorlar erkak hamkasblari bilan ayni tarzda ta'lim va munosabat ko'rishardi. Biroq 200-yilda ayollardan gladiator janglarida foydalanish man etildi.

Kaligula, Tit, Adrian, Lutsiy, Karakalla, Geta va Didius Yulianus arenada janglarda ishtirok etishgan, lekin ular uchun xavf juda oz edi. Tarixchilar tomonidan ruhiy kasalligi iddao etilgan Klavdiyning portda qarmoqqa ilingan bir nahang bilan jang qilgani rivoyat qilinadi.

Kommodus bu o'yinlarning ashaddiy ishtirokchisi edi. Bu masalada dushman bo'lgan Senat unga qarshi edi, ammo aksariyat aholi uni dastaklaganini gumon qilish mumkin. U oddiy janglardan ko'ra hayvonlarni (arslon, tuyaqush) uzoqdan kamon yo nayza bilan o'ldirishni xush ko'rardi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Qadimgi Rimda qullarni it azobiga solinishi, ularni gladiatorlar maktablariga sotib yuborilishi, boy zodagonlarni ko'nglini xushlash uchun gladiatorlar janglarini tashkil etilishi va bu janglarga davlat amaldorlari ham qo'shilganligi ham gladiatorlarni tirik qolish uchun kurashganligi ham oddiy xalqni nechog'liq azob uqubatlarga solinishi ham achinarlidir.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – T.:“Fan va texnologiya”,2009. – B.378
2. Boynazarov F. A. Qadimgi dunyo tarixi. – T.:Iqtisod – Moliya, 2004. – B.123
3. Sagdullayev A.S., Kostetskiy V.A. Qadimgi dunyo tarixi(Umum ta’lim maktablari 6-sinfi uchun darslik). – T.:“Yangiyo‘l poligraf servis”, 2017. – B.162
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gladiator>